

“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
22-mavzu: “Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning buyukligi”

Dars maqsadi:

Umumiy maqsad: Ushbu mashg‘ulot davomida 5-8-sinf o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlarida to‘plagan bilimlarini takrorlash, darsliklardagi ma’lumotlarga mutanosib ravishda qo‘shimcha ma’lumotlar berish, g‘azallar orqali yondashuv asosida xotirani charxlash maqsad qilingan. Bilamizki, maktabda turli fanlar orqali ham yuqoridagi ikki ajdodimiz haqida bilimlar berib boriladi. “Kelajak soati” darslari orqali esa o‘quvchilardagi mavjud bilimlar mustahkamlanadi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi bilimlarini qay darajada ekanligini aniqlash.
2. Bu ikki siymo haqidagi o‘quvchilarning fikrlarini bilish va ularning mavzuga yondashuvlarini kuzatish.
3. Tarixiy faktlarni bugungi atrofimizdagi hodisalarga bog‘lab o‘quvchilarda mavzu doirasida kengroq mushohada qilish ko‘nikmasini shakllantirish.
4. O‘quvchilarda mavzuga doir bilimlarini ozgina bo‘lsa-da ko‘paytira olishga erishish va ikki siymo haqida aniq ma’lumotlarni mustahkam o‘zlashtirishlarini ta’minlash.

Asosiy g‘oyalar: O‘quvchilar adabiyot, tarix, tarbiya darslari orqali olgan bilimlarini mustahkamlaydilar.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

Aqliy va tushunchaviy darajada:

1. O‘quvchilar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi bilimlari mustahkamlanadi;
2. Ushbu ikki siymoni nafaqat shoir va davlat rahbari sifatida, balki boshqa qirralarini ham yaxshilab o‘zlashtiradi;
3. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqida o‘rganilgan bilimlardan kelib chiqib, o‘quvchilarda mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Ajdodlarni e‘zozlash hissi tarbiyalanadi.
- Ajdodlarni qadrlash va o‘z yaqinlarining hurmatini joyiga qo‘yish hissi shakllanadi.
- Ma’naviy merosga hurmat bilan munosabatda bo‘lish adabiy hamda

tarixiy merosimizga nisbatan mas'uliyatli munosabat paydo bo'ladi.

3. Amaliy ko'nikmalarda:

- Olgan bilimlar vositasida kunimizdagi voqelikni tahlil qilishga urinish, sog'lom tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalari shakllanadi.

- O'z olgan bilimlarini kreativ ravishda solishtirish va tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Jamiyatda Navoiy va Bobur haqidagi fikrlarni tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi.

- Hozirgi kunda Navoiy va Bobur hayoti va ijodini o'rganish, keyingi avlodga meros qoldirishga qaratilgan ishlarni tushunish va hissa qo'shish ko'nikmasi shakllanadi.

Metapredmet: bu ta'limda o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

- O'quvchilar bilimni turli kasb egalari bilan bog'laydi (texnologiya fan);

- O'quvchilar ilm haqida hikoya tinglaydi va maqollar yod oladi (adabiyot);

- Video va multfilmlarni ko'radi va undan xulosa chiqaradi (san'at va media savodxonligi);

- Bilimning hayotiy misollarini tahlil qiladi (muloqot)

– bu esa metapredmet yondashuvining namunasidir.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

ssenariy;

uslubiy tavsiyalar;

videomateriallar;

interaktiv topshiriqlar;

taqdimot.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

(Dokaga Navoiy va Bobur bobolarimizning suratlari ilingan)



O‘qituvchi: Bolalar, yaxshilab o‘ylab ko‘ring: inson qachon “buyuk” deb ataladi? Faqat mashhur bo‘lgandami? Pul topgandami? Yoki hokimiyatga erishgandami?

O‘quvchilar fikr bildiradi, ehtimol, bahs paydo bo‘ladi.

O‘qituvchi: Bugun darsimizda biz aynan mana shu savollarga javob izlaymiz.

Sizlar ko‘p bora eshitgansiz: “buyuk inson”, “buyuk ajdod”. Lekin o‘ylab ko‘rganmisiz – buyuk inson ham bir paytlar sizga o‘xshagan bola bo‘lgan. U ham xato qilgan, ikkilanib qolgan, qo‘rqqan, lekin baribir oldinga yurgan.

Bugun biz sizlar bilan shunday ikki inson haqida gaplashamiz.

Ular – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur.

Bugun 9-fevral – Alisher Navoiy bobomizning tug‘ilgan kuni. U kishi tavalludiga 585 yil to‘ldi. Yana 5 kundan keyin, ya’ni 14-fevralda esa Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning tavallud kunlari nishonlanadi. U kishi tavalludiga 543 yil to‘ladi.

Diqqat qiling: bugun biz ularni faqat tarixda qolgan, kitoblardagi ism sifatida emas, balki sizlar kabi bola bo‘lgan, lekin o‘z ustida ishlagan shaxslar sifatida taniymiz.

Siz buyuk shaxs bo‘lish uchun bolalikda nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz? Ko‘p o‘qishmi? Ota-onaning pulimi? Yoki omadmi?

Daholar ham sizlar kabi o‘qigan. Ular ham savol bergan. Ular ham vaqti-vaqti bilan o‘ynagan.

Farqi shundaki, ular **vaqtni bekorga sarflamagan**. Bugun biz shu dars davomida mana shu savolga javob topamiz: Navoiy va Bobur bolalikdan boshlab o‘zlarini qanday tarbiyalagan va bu sizlar uchun nimani anglatadi?

Agar tayyor bo‘lsangiz, endi darsning eng qiziqarli qismiga – buyuklik saboqlariga o‘tamiz.

II. ASOSIY QISM (25 daqiqa)

1-blok. Alisher Navoiy: fikr, mas’uliyat va jamiyat

O‘qituvchi: Bolalar, ko‘pchilik Alisher Navoiyni buyuk shoir sifatida taniydi. Bu to‘g‘ri. Ammo bugun biz Navoiyni she‘r yozgan shoir yoki ilmiy asar yozgan olimgina emas, balki qaror qabul qiladigan va jamiyat oldida mas’uliyatni his qilgan shaxs sifatida ko‘ramiz.

Tasavvur qiling, sizda uchta narsa bor: pul, mansab va imkoniyat.

Mana shu uchta narsa insonni buyuk ham qilishi mumkin, kichraytirib ham yuborishi mumkin. Hammasi tanlovga bog‘liq.

Siz ularni faqat o‘zingiz uchun ishlatasizmi yoki boshqalar uchun ham foyda keltirasizmi?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi. 2 daqiqa muhokama qilinadi.

O‘qituvchi: Bolalar, Alisher Navoiyga otasidan katta boylik meros qoladi. U vazir, bosh vazir, shuningdek, Astrobod shahri hokimi bo‘lib ishlagan va katta vakolatlarga ega bo‘lgan. U boylik va mansabga ega paytida, “men o‘zim uchun yashayman” demagan. Aksincha, “men jamiyat oldida mas’ulman” deb yashagan.

Alisher Navoiy o‘z mol-mulkini xalq foydasiga ishlatgan. U buning uchun maxsus hujjat tuzgan. Bu hujjat “Vaqfiya” deb ataladi. Vaqfiyada Navoiy o‘z boyligi qayerga va kimlar uchun sarflanishini aniq yozib qoldirgan.

Masalan, u kambag‘allar bepul davolanishi uchun Shifoia degan shifoxona tashkil qilgan. Yana Unsiya, Qursiya, Sofoiya, Ixlosiya, Xalosiya degan boshpanalar, hammomlar, masjid va maqbaralar qurgan, u yerda ishlaydiganlarga muntazam oylik to‘lab turgan.

Bu shuni ko'rsatadiki, Navoiy uchun xayriya shunchaki yordam emas, balki insoniy burch bo'lgan.

Navoiy bobomiz bizga bitta muhim saboq qoldirgan: agar senda imkon bo'lsa, demak, jamiyat oldida mas'ulsan. Boylik ham, bilim ham, mansab ham faqat o'zing uchun emas, boshqalar uchun foyda keltirgandagina qiymatli bo'ladi.

Ulug' shoir:

Odami ersang, demagil odami,

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami, –

deb yozdi. Ya'ni xalqning g'amini o'ylamaydigan odamni odam deb hisoblama deganlar. Navoiy bobomiz o'zining hayoti uchun ham bu da'vatni shior sifatida qabul qildi.

Interaktiv topshiriq: “Tanlov nuqtasi”

Sinf 3 guruhga bo'linadi:

- **“Bilim yo'li”**
- **“Ijod yo'li”**
- **“Xalqqa xizmat yo'li”**

O'qituvchi: Tasavvur qiling, siz Alisher Navoiyning o'rnidasiz. Sizda katta boylik, yuqori mansab bor. Har bir guruh o'z yo'lini tanlaydi va bitta savolga javob topadi:

Agar men Navoiy bo'lganimda, hayotimni nimaga bag'ishlagan bo'lardim?

(Guruhlar muhokama qiladi, fikrlarini aytadi)

O'qituvchi: Alisher Navoiy hayotda har uchala yo'ldan baravar yurganlar. U kishi boyligini faqat o'ziga sarflamagan: maktablar ochgan, yetim bolalarni qo'llagan, olimlarga homiylik qilgan, ilm va adolatni davlat ishining markaziga qo'ygan.

Shuning uchun u faqat shoir emas. U ma'rifatparvar lider edi.

Yosh shoir Shahriyor Shavkat ayni kunlarda Navoiy va Bobur bobolarimiz izidan safarga chiqibdi. U Kobuldan turib sizlar uchun maxsus bir videokontent yozib jo'natgan. Kelinglar, shuni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

“O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa...”

https://youtu.be/_oEfbvxrBYA

2-blok. Bobur: yo‘qotishdan imperiyagacha

O‘qituvchi: Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur deyarli bir zamonda yashashgan. Lekin ular tengdosh bo‘lishmagan. Bobur Navoiydan 42 yosh kichik bo‘lgan. Uni o‘zining otasidek ko‘rgan. Navoiy Boburga xat yozgan, Bobur xursand bo‘lgan va javob xati yozgan.

Bu ikki buyuk zot biri Hirotda, biri Samarqandda bo‘lishgan, bir-birini hayotda ko‘rishmagan. Ammo ikkisi ham temuriylar davrining buyuk mutafakkirlari bo‘lishgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 12 yoshida taxtga chiqqan. Lekin uning hayoti silliq kechmagan. U yurtidan ayrilgan, mag‘lub bo‘lgan, yolg‘iz qolgan paytlarini boshdan kechirgan.

Shu yerda savol tug‘iladi: Inson qachon sinadi?

Javob oddiy: taslim bo‘lganda.

Bobur esa taslim bo‘lmadi. U kurashdi, ijod va ilm qildi, tahlil qildi, xatolaridan saboq oldi. Va oxir-oqibat imperiya barpo etdi.

Mini-muhokama

O‘qituvchi: Bugungi yoshlar muvaffaqiyatsizlikdan keyin ko‘pincha nima qiladi? Bobur esa nima qilgan?

O‘quvchilar fikr bildiradi.

O‘qituvchi: Bobur kuchni faqat qilichda emas, fikrda va bilimda ko‘rgan. Shuning uchun uning “Boburnoma”si bugun ham dunyo universitetlarida o‘qitiladi. Bu uni shunchaki sarkarda emas, balki fikrlovchi shaxs ekanini ko‘rsatadi.

Bobur Hindistonni egallab, u yerdagi qabilalar o‘rtasida doim bo‘ladigan mayda urushlarga chek qo‘ydi va kuchli davlat barpo etdi. Uning bu tarixiy xizmatlari va buyuk ijodidan faxrlanib zamonaviy Hindistonning eng ko‘zga ko‘ringan liderlaridan biri Javarharla’l Neru shunday degan: **“Bobur – dilbar shaxs, uyg‘onish davrining tipik vakili”**.

Tasavvur qilyapsizlarmi, Bobur shu qadar katta va olamshumul ishlarni qilganki, hatto u bosib olgan yurtning keyinchalik yashagan lideri ham unga tan bergan.

Bobur faqat o‘tmishda qolgan inson emas. Bugun ham uning nomi yashayapti. Bunga yaqqol misol – Andijondagi Bobur shaharchasi.

Hozir sizlar shu joydan olingan videoreportajni tomosha qilasiz. Diqqat qiling: tarix qanday qilib bugungi hayotga ulanmoqda?

Vizual kontent

Andijondagi Bobur shahridamiz

<https://youtu.be/AGUcTFD628E>

Buyuklik formulasi

(Dorskaga yoziladi)

Buyuklik = bilim + mehnat + mas’uliyat + sabr

O‘qituvchi: Navoiy ham, Bobur ham aynan shu formulaga amal qilganlar.

Ular sizlardan aqlliroq bo‘lgani uchun emas, omadliroq bo‘lgani uchun emas, balki **vaqtni bekorga sarflamaganlari uchun** buyuk bo‘lishgan.

Bugun bu formula sizlar uchun ham ochiq. Qaysi yo‘lni tanlash esa – sizning tanlovingiz.

Shu o‘rinda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonovning Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur haqidagi fikrlariga quloq tutamiz.

Vizual kontent

Xayriddin Sultonovning Navoiy va Bobur haqidagi mulohazalari

<https://youtu.be/29DhU6CVer8>

III. YAKUNIY QISM (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Bolalar, bugun biz ikki buyuk ajdodimiz – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqida gaplashdik. Dars yakunida bir savol haqida o‘ylab ko‘ring: bu insonlar 500 yil oldin yashagan bo‘lsa, nega bugun ham ular

haqida gapiryapmiz? Nega ularning nomi maktablarda, kitoblarda, bog'larda, shaharlar va ilm maskanlarida yashayapti?

Javob oddiy: chunki buyuk meros unutilsa – xalq zaiflashadi. Buyuk meros asralsa – xalq kuchayadi.

Bugun Navoiyni va Boburni eslash – faqat tarixni bilish uchun emas. Bu – davlat siyosati darajasidagi muhim masala.

Davlatimiz rahbari tomonidan buyuk ajdodlar merosini asrash, o'rganish va yosh avlodga yetkazish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Navoiy va Bobur nomlari maktablar va universitetlarga berilmoqda, kutubxonalar va madaniyat markazlari tashkil etilmoqda, ilmiy tadqiqotlar, filmlar, ko'rgazmalar, adabiy loyihalar yaratilmoqda.

Bu ishlardan maqsad nima? Bu shuni anglatadiki, davlat sizlarning kimdan ruhanishingiz va ilhom olishingizni aniq bilishingizni istaydi. Buyuk bobokalonlarimiz bizga kim ekanimizni, qanday buyuk ajdodlarning avlodi ekanimizni bildirib turishadi, ularga munosib bo'lish uchun harakat qilishga undaydi. Davlatimiz ularni unutmasligingizni, shu merosdan kuch olib, oldingizga yanada balandroq maqsadlar qo'yishingizni xohlaydi.

Hozir sizlarga videorolik namoyish etiladi. Unda davlatimiz tomonidan Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosini abadiylashtirish, ularning nomini bugungi hayot bilan bog'lash yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar aks etgan.

Videoni tomosha qilar ekansiz, o'zingizga bitta savolni bering:

Bu meros bugun aynan men uchun nimani anglatadi?

Vizual kontent

Navoiy va Bobur xotirasiga e'tibor

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/382

O'qituvchi: Ko'rdingizmi, bolalar? Navoiy va Bobur bobolarimiz o'z davrida mas'uliyatni his qilgani uchun tarixda qolishgan.

Endi birgalikda o'ylab ko'raylik. Agar Navoiy va Bobur bobolarimiz bugun tirik bo'lganida, sizlarga nima derdi?

(Kichik pauza)

Menimcha, ular: “Biz boshlagan yo‘lni davom ettiring.” – der edilar, albatta.

Keling, buni baland ovozda aytamiz.

O‘quvchilar birgalikda:

– Men bilimga intilaman!

– Men mas’uliyatli bo‘laman!

– Men Vatanimga foyda keltiraman!

O‘qituvchi: Shu bilan darsimizga yakun yasaymiz. Sizlar esa buyuklik sari harakat qilishdan to‘xtamang.